

## JALOLIDDIN RUMIYNING “MASNAVIYI-MA‘NAVIY” ASARIDAGI TASAVVUFIIY G‘OYALAR TAHLILI

**SHDPI O‘zbek tili va adabiyoti**  
**yo‘nalisi magistri**  
**Z.S.Bekmurodova**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Sharq olamining ulug‘ mutafakkiri Mavlono Jaloliddin Rumiyning “Masnaviyi ma‘naviy” asaridagi insoniy, falsafiy-diniy, tasavvufiy g‘oyalar mazmuniga oid fikrlar berilgan. Asrlar davomida to‘llanib kelgan Sharq falsafasi va islomiy haqiqatlarni o‘zida aks etgan tasavvuf falsafasini qo‘yib, inson ruhi mohiyatini ochgan ulug‘ mutafakkirning ijodiy asari haqidagi tahliliy ma‘lumotlar berilgan. Shuningdek, tadqiqotda adabiyotlar tahlili va ilmiy metodologiya orqali Rumi merosining zamonaviy manaviy tarbiya bilan bog‘liqligiga e‘tibor qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** “Masnaviy-ma‘naviy”, “Olam va bashariyat birligi”, komillikka erishish, mantiq kuchi, Hegel, Spinoza, “Alloh huzuri”, “Ulug‘ Tangri haqiqati”, tasavvuf, dialektik metod, irfon, ruhiy tahlil.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются гуманистические, философско-религиозные и суфийские идеи, отражённые в произведении великого мыслителя Востока Мавлоно Жалолиддин Румий «Маснави-йи маънави». Представлены аналитические сведения о творческом наследии великого мыслителя, раскрывшего сущность человеческой души посредством соединения суфийской философии, вобравшей в себя исламские истины, и восточной философии, формировавшейся на протяжении веков. Также в исследовании посредством анализа литературы и научной методологии уделено внимание связи наследия Руми с современным духовно-нравственным воспитанием.

**Ключевые слова:** «Маснави-йи маънави», единство мира и человечества, достижение совершенства, сила логики, Георг Вильгельм Фридрих Гегель, Бенедикт Спиноза, «присутствие Аллаха», «истина Великого Творца», суфизм, диалектический метод, ирфан, духовный анализ.

**Abstract.** This article examines the humanistic, philosophical-religious, and Sufi ideas reflected in the work “Masnaviyi Ma‘navi” by the great Eastern thinker Mawlana Jalaluddin Rumi. The study provides analytical information about the creative legacy of the great thinker, who revealed the essence of the human soul through the integration of Sufi philosophy embodying Islamic truths and the traditions of Eastern philosophy accumulated over centuries. In addition, the research emphasizes the relationship between Rumi’s heritage and modern spiritual and moral education through literature analysis and scientific methodology.

**Keywords:** “Masnaviyi Ma‘navi,” unity of the universe and humanity, attainment of perfection, the power of logic, Georg Wilhelm Friedrich Hegel, Baruch Spinoza, “the presence of Allah,” “the truth of the Almighty,” Sufism, dialectical method, irfan, spiritual analysis.

**Kirish**

Mavlono Jaloliddin Rumiyning “Masnaviyi ma‘naviy” asarining mazmun-mohiyatini ochishga bag‘ishlangan ilmiy ishlar ko‘plab bitilgan. Chunki “Masnaviyi ma‘naviy” majoziy uslubdagi qiziqarli va soda hikoyalardan iborat bo‘lsa ham, ularning haqiqat qatlamini oshkor etish va idrok etish oson kechmaydi. Shu ma‘noda aytish mumkinki, mazkur asarning ko‘plab sharhlari yurtimizda mutaasiblik va firqachilik kabi ma‘naviy illatlarni anglab yetish va tushunib yetishda kitobxonlarga yaqindan yordam beradi. Shubhasiz Jaloliddin Rumiyning ijodidagi eng yorqin asarlaridan biri “Masnaviyi ma‘naviy” kitobi hisoblanadi. U Haqiqat taronasi, haq madhi, insonning komillik yo‘lriqnomasidir.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya**

Jaloliddin Rumiyning “Masnaviyi ma‘naviy” asari xalqaro ilmiy hamjamiyatda keng o‘rganilgan va turli aspektlarda tahlil qilingan. Ushbu bo‘limda mavzu bo‘yicha o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlar va manbalar ko‘rib chiqiladi, ularning asosiy xulosalari va mazkur tadqiqotga bo‘lgan aloqadorligi baholanadi.

Rumiy merosi bo‘yicha o‘tkazilgan xalqaro tadqiqotlar qatorida amerikalik olim Annemarie Schimmel’ning “The Triumphal Sun: A Study of the Works of Jalaluddin Rumi” (1978) asari alohida o‘rin egallaydi. Schimmel Rumiy she‘riyatini tasavvuf, islom falsafasi va ezoterik bilim nuqtai nazaridan keng qamrovli tarzda tahlil qilgan. Olima asarning she‘riy tilini ham, falsafiy mazmunini ham birga ko‘rib chiqib, Rumiy ijodining universal insoniy qiymatlarini asoslab bergan. Bu tadqiqot “Masnaviyi ma‘naviy” dagi ishq va ilohiy birlik tushunchalarini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Britaniyalik olim William Chittick’ning “The Sufi Path of Love: The Spiritual Teachings of Rumi” (1983) asarida Rumiyning tasavvufiy ta‘limotlari tizimli ravishda yoritilgan. Chittick “Masnaviyi ma‘naviy” da ishq (muhabbat), arif (irfon) va vahdatul-vujud (borliq birligi) tushunchalarini falsafiy jihatdan tahlil qilib, Rumiy falsafasining Ibn Arabiy va boshqa tasavvuf namoyondalari bilan bog‘liqligini ko‘rsatib bergan. Ushbu yondashuv hozirgi tadqiqotning nazariy asosini shakllantirishda qimmatli rol o‘ynaydi.

O‘zbek olimlarining tadqiqotlari orasida Mardonova M.ning “Jaloliddin Rumiyning “Masnaviyi ma‘naviy” asarida irfon va falsafa uyg‘unligi” nomli maqolasi (2024) alohida e‘tiborga molik. Muallif Rumiy asarini o‘zbek adabiyotshunoslik va falsafiy tafakkur nuqtai nazaridan tahlil qilgan hamda asardagi irfon va falsafaning o‘zaro munosabatini o‘rganib, tasavvufiy g‘oyalarning milliy ma‘naviy tarbiya bilan uyg‘unligini asoslab bergan. Bu tadqiqot maqolamizning milliy kontekstdagi asoslarini mustahkamlaydi.

Qodirov B.ning “Komil inson tarbiyasining pedagogik asoslari” (2001) asarida esa Sharq mutafakkirlari, jumladan Rumiy merosidagi komil inson g‘oyasi pedagogik jihatdan tahlil qilingan. Muallif Rumiy falsafasidagi tarbiyaviy g‘oyalarni zamonaviy ta‘lim tizimiga tatbiq etishning amaliy yo‘llarini ko‘rsatib bergan. Ushbu yondashuv bizning tadqiqotimiz uchun ham muhim nazariy tayanch bo‘ladi.

Bundan tashqari, “Jaloliddin Rumiy tavalludining 800 yilligi” munosabati bilan chop etilgan metodik-bibliografik qo‘llanma (2007) Rumiy hayoti, ijodi va merosiga oid keng ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan. Ushbu manbada Rumiyning jahon adabiyotidagi o‘rni, asarlarining turli tillarga tarjima qilinishi va xalqaro miqyosdagi e‘tirof masalalari yoritilgan.

Yuqoridagi adabiyotlar tahliliga asoslanib shunday xulosa qilish mumkinki, Rumiy merosi ko‘p qirrali bo‘lib, uni faqat biror bir yo‘nalish – adabiy, falsafiy yoki pedagogik – doirasida o‘rganish yetarli emas. Amaldagi ilmiy ishlar orasida “Masnaviyi ma‘naviy” dagi tasavvufiy g‘oyalarni zamonaviy ma‘naviy tarbiya kontekstida kompleks tarzda o‘rganish masalasi hali yetarlicha yoritilmagan. Shu jihatdan ushbu tadqiqot mavjud bo‘lishliqni to‘ldirishga yo‘lnatirilgan.

### **Metodologiya**

Tadqiqot o‘tkazishda kompleks ilmiy metodologiyadan foydalanildi. Asosiy usullar quyidagilardan iborat:

Germenevtik tahlil metodi – “Masnaviyi ma‘naviy” matnini chuqur mazmuniy jihatdan o‘rganishda qo‘llanildi. Bu metod orqali Rumiyning majoziy tildagi baytlari va hikoyatlari ostidagi falsafiy, irfoniy va axloqiy ma‘nolar ochib berildi. Germenevtik yondashuv yozma manbalarning tarixiy-madaniy kontekstini hisobga olgan holda ularni talqin qilish imkonini beradi, bu esa XIII asrda yashagan mutafakkirning g‘oyalari bugungi ilmiy tushuncha nuqtai nazaridan baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qiyosiy-tarixiy tahlil metodi – Rumiy falsafasini uning zamondoshlari va o‘tmishdoshlari – jumladan, Ibn Arabiy, Farididdin Attor, Ahmad Yassaviy kabi mutafakkirlar – g‘oyalari bilan solishtirish maqsadida qo‘llanildi. Bundan tashqari, Rumiy tasavvufiy ta‘limotining G‘arb falsafasi

namoyondalari (Hegel, Spinoza) bilan mushtarak va farqli jihatlarini aniqlashda ham shu metoddan foydalanildi. Bu usul Rumiylarning merosining umumjahon falsafiy tafakkuri bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatishga imkon beradi.

Matniy tahlil metodi – “Masnaviyi ma'naviy” ning o'zbek tilidagi tarjimasida baytlarning leksik, semantik va uslubiy jihatlarini o'rganishda foydalanildi. Ayrim baytlarning arab va fors tilidagi asl nusxalari bilan taqqoslanishi ham nazarda tutildi. Ushbu metod orqali asardagi asosiy tasavvufiy tushunchalar – ishq, fano, vahdatul-vujud, komil inson – terminologik jihatdan aniqlanib, tahlil qilindi.

Tizimli tahlil metodi – Rumiylarning g'oyalarini yakka-yakka emas, balki bir-biri bilan bog'liq yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqish uchun qo'llanildi. Bu metod yordamida asardagi komil inson kontsepsiyasi, ruhiy evolyutsiya bosqichlari va axloqiy-falsafiy qarashlar o'zaro munosabatda o'rganildi.

Sifat tadqiqot yondashuvi asosida birlamchi va ikkilamchi manbalar tahlil qilindi. Birlamchi manba sifatida “Masnaviyi ma'naviy” asarining o'zbek va rus tilidagi tarjimalari, ikkilamchi manbalar sifatida esa mavzu yuzasidan e'lon qilingan ilmiy maqolalar, monografiyalar va bibliografik qo'llanmalar ko'rib chiqildi.

Ushbu metodologik yondashuv Rumiylarning tasavvufiy g'oyalarini ko'p qirrali va chuqur tarzda o'rganish, ularning zamonaviy ma'naviy tarbiya bilan aloqasini ilmiy asosda isbotlash imkonini berdi.

#### **Natijalar va muhokama**

Sharqning buyuk mutafakkirlarining asarlari zamonaviy ilm-fan va taraqqiyot poydevori. Jamiyat taraqqiyotidagi har qanday o'zgarishlar, yangiliklar, ayniqsa, insoniyat rivojiga katta turtki beradigan jarayonlar, o'z-o'zidan yuz bermaydi. Komil inson tarbiyasi serqirra madaniyat manbai bo'lip, barcha ezgu ishlar, yaxshi amallar, umuminsoniy qadriyatlar, ongning har tomonlama mukammalligi barchasi komillikning atrofida mujassalashgandir. Shu narsa ma'lumki, ma'naviy tarbiya inson kamoloti yo'llidagi shunday bir vositaki, uni chetlab o'tish mumkin emas. Ajdodlarimizning boy ma'naviy merosi, ularning hayotiy tajribalari, yashash tarzlari, insoniy xususiyatlari komil inson tarbiyasining asosiy omillaridan sanaladi. Biz bu ma'naviy boyliklarni o'rgangan sari, fikrimiz charhlanadi, o'zimizni ajdodlarimizga yaqinroq sezamiz. [A1; 10 b]

Jaloliddin Rumiylarning “Masnaviy” asari — bu nafaqat sufizmning eng yirik asarlaridan biri, balki inson tarbiyasi va komil inson g'oyasini o'zida aks ettirgan falsafiy, axloqiy, ma'naviy merosdir. “Masnaviy” asarida Rumiylarning insonning ichki rivojlanishiga, uning ruhiy poklanishiga, axloqiy va ma'naviy jihatdan mukammallikka erishishiga katta e'tibor qaratgan. Bu asarda komil inson g'oyasi, uning o'zini anglash jarayoni, ruhi va qalbining poklanishi, atrofdagi dunyo bilan munosabati, o'zini eng yuqori holatda tarbiyalashga intilishi ta'riflanadi.

Insonning iymon gavhari, buyukligi barobarida, nuqsonlar – nafs, hirs, oqibatida kelib chiqadigan yovuzliklarni tahlil etib, bulardan qutulish, poklanish yo'llari, fazilatini bayon etadi. Rumiylarning har bir fikri – bir mash'ala, bir chiroq, shundoqqina qalbgga qo'yiladigan ziyodir. Ulug' mutafakkir inson kamoloti uchun kurashchi bo'lib maydonga chiqadi, inson bolasini uning o'ziga tanishtiradi, yomonlikdan nafratlanish va yaxshilikdan, ilohiylikdan faxrlanishga o'rgatadi. Mavlono Jaloliddin Rumiylarning “Masnaviyi-Ma'naviy” asarida yoritilgan qarashlar, kuzatishlar va hayotiy tajribalar o'quvchini ruhiy va axloqiy kamol topishiga, jamiyatda esa sog'lom va pokiza muhitni yuzaga keltirishiga beqiyos hissa qo'shadi.

“Rumiylarning teran nigoh bilan dunyoga nazar tashlaydi. U insonni qanday bo'lsa shundayligicha o'rganadi. Kishining qalb qo'ridagi eng nozik, eng go'zal yashirin sirlarini oshkor qiladi. U odamlar bir-biridan boyligi, irqi, dini, nasli-nasabi bilan emas, balki komillikka intilishi bilan farq qiladi, deydi. Uning fikricha, inson komillikka o'z mehnati, qobiliyatiga yarasha erisha oladi.

Jaloliddin Rumiylarning ishq-muhabbat va sevgini, zarrin nurini taratib turgan quyoshga o'xshatadi. Lekin o'z-o'ziga bino qo'yishni o'zini zindonga tashlash, deb biladi. Buyuk olim insonga, ayol zotiga bo'lgan muhabbatni qadrlaydi. Zero, inson o'ziga o'xshagan insonga muhabbat qo'yishi bilan

insoniylik mohiyatini anglab yetadi, deydi. Ayol – hayot davomchisi bo‘lib, u payg‘ambarlarni, valiylarni, avliyolarni, podshohlarni, komil insonlarni va yer yuzidagi barcha insonlarni dunyoga kelishiga sababchi zot. Bashariyat onaning mehr nuridan kamol topib, komillik sari odimlaydi.

“Jaloliddin Rumiyning buyukligi yana shundaki, u islomning ulug‘ shoiri va mutafakkiri bo‘lgani holda barcha mazhablar va dinlardan yuqori ko‘tarila oldi, bani basharni birlashtiruvchi yagona ilohiy g‘oyalarni olg‘a surib, kishilarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi e‘tiqod va iymon, ishq va sig‘inish, poklik va tavbadan so‘z ochdi. “Cho‘llar muxtalif, ammo maqsad bir, ya‘ni Alloh huzuri”, deya Ulug‘ Tangri haqiqati Alloh jami maxluqot barobarligini isbotladi. [A2; 3 b]

Jaloliddin Rumi o‘zining “Masnaviyi-Manaviy” asarida ko‘p o‘rinlarda hayotdagi ezgulik bilan bog‘liq oddiy bir axloqiy tushunchani ifodalaydi. Bu bilan Jaloliddin Rumi aytmoqchiki, inson abadiy yashamaydi, o‘lim haq, shunday ekan, odamlarga yaxshilik qil, hayotda shu qoladi. Jaloliddin Rumi asarda axloqshunoslikning bu kabi tushuncha va me‘norlarini talqin qilishda asosli, jonli va go‘zal ifodaga erishgan. Uningcha, “har bir inson, u kim bo‘lmasin, bir kun kelib shunday go‘zal hayotni, yuragiga yaqin kishilarni, bolalarini tashlab, u dunyoga ketishga majburdir. Binobarin, uni ongli ravishda chiroyli tark etish kerak. Hayotni, ya‘ni bu gulshanni chiroyli tark etishning birdan bir yo‘li esa, uningcha, odamlarga yaxshilik qilish, shu yo‘l bilan yaxshi nom qoldirish, ya‘ni yaxshilik bilan ot chiqarishdir.” [A3;18 b]

Jaloliddin Rumiyning buyukligi yana shundaki, u islomning ulug‘ shoiri va mutafakkiri bo‘lgani holda barcha mazhablar va dinlardan yuqori ko‘tarila oldi, bani basharni birlashtiruvchi yagona ilohiy g‘oyalarni olg‘a surib, kishilarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi e‘tiqod va iymon, ishq va sig‘inish, poklik va tavbadan so‘z ochdi: “Yo‘llar muxtalif, ammo maqsad bir, ya‘ni Olloh huzuri”, deya Ulug‘ Tangri haqiqati oldida jami maxluqot barobarligini isbotladi. “Fihi mo fihiy” da ruh dialektikasi, inson mayllari, tushuncha-tasavvurlari, ehtiyoj va talablari, iztirob va qiynoqlari, ziddiyatlar va muvofiqliklar, kurash va g‘alabalik, yo‘lqlik va borliq, ro‘yo haqiqat, jism va jon va hokazolar ustida bildirilgan fikrlar shunchalik chuqur va shu qadar yorqinki, bu fikrlarni bundan yetti yuz yil ilgari aytilganiga ishonqiramay qolasiz, go‘yo ular bugun aytilganday. [A4;3 b]

Mutafakkir insonning bu dunyodagi ahvoli, ruhiyati xususida ta‘kidlab shunday fikrlarni bildiradi: “Insonda shu qadar ulkan ishq, hirs, orzu va dard bordirki, yuz minglarcha olam o‘ziniki bo‘lsa ham, ko‘ngli tinchimaydi. U ishda, san‘atda, ilmu nujumda, hakimlikda mashg‘ul. Biroq bularning hech biridan huzur topolmaydi. Chunki istagan narsasini qo‘lga kiritolmagan. Yor dilorom, ya‘ni ko‘ngilni tinchlantiruvchi demakdir. Shunday ekan, ko‘ngil boshqa nima bilan qanday xotirjam bo‘lsin? Zavq va orzular zinapoyaga o‘xshaydi. Zinapoyalar o‘tirib dam olishga moslashmagan, aksincha usti bosib o‘tiladi, xolos. Umrni shu zinalarda behuda o‘tkazmaslik uchun g‘ofilliqdan tez uyg‘ongan va ahvolining mohiyatini anglab yetgan zot qanday baxtli.” [A5;65 b]

Ushbu hikmatli gaplardan ko‘rinib turibdiki falsafada ham irfonda ham yetuklik cho‘qqisiga chiqishda ma‘naviyat va ma‘rifat tushunchalari kalit bo‘lib xizmat qiladi. Insonning mohiyatini Mavlono ikki asosda – moddiy va ma‘naviy jihatlarning uyg‘unligida deb biladi: “Agar danakni chaqib, mag‘zini eksang unmaydi. Agar qobig‘i bilan birga tuproqqa qadasang-chi, unish hodisasi ro‘uy beradi.” [A5;4 b] Bunda mutafakkir bioruhiy mavjudot bo‘lgan insonga ishora qilib, danakning mag‘zi ruh, qobig‘i esa insonning vujudi ekanligini, bu foni dunyoda insonning ikki dunyo saodatiga noil bo‘lishi uchun esa mana shu moddiy va ma‘naviy asosning uyg‘unligi muhim ahamiyat kasb etishini nazarda tutadi. Bundan ko‘rinadiki, Mavlonoing maqsadi insonni g‘ofilliqdan uyg‘otib, o‘z mohiyatini teran anglashga undash, uning faqat moddiy asiri bo‘lib qolmasligi va haqiqiy ilm va hikmatning boshi bo‘lgan Allohni tanishga, Uning jamoliga musharraf bo‘lishga chaqirishdir. Buning uchun inson vujudidagi hayvoniylik sifati mag‘llub bo‘lib, insoniylik sifati zuhur etilishi kerak bo‘ladi. Jaloliddin Rumi aytganlaridek, “Insonning ichi hurriyat olami” [A5;94 b] ga aylanadi.

**Xulosa**

Jaloliddin Rumiyning “Masnavi” asari komil inson g‘oyasini mukammal tarzda aks ettiradi. Bu uning islom va tasavvuf ma‘naviyati xalqchil ruhda falsafiy mushohadalarga boy hikoyatlar va masnaviy janrida bitilgan she‘riyatida namoyon bo‘ladi. Jaloliddin Rumiylar she‘riyati yuksak estetik mazmunga ega bo‘lib, undagi ma‘naviy g‘oyalar irqi, millati va dinidan qat‘i nazar, insonning o‘zini anglashiga xizmat qiladi, inson qalbiga boruvchi barcha yo‘llarni birlashtiradi va azaliy mohiyatlarni kashf qilib, insoniyatni bag‘rikenglik va ma‘naviy komillik sari yetaklaydi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Rumiylar merosi xalqaro va milliy miqyosda keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, uning tasavvufiy g‘oyalarini zamonaviy ma‘naviy tarbiya muammolari bilan bog‘liq holda kompleks o‘rganish hali dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Qo‘llanilgan metodologiya – germenevtik, qiyosiy-tarixiy va matniy tahlil metodlarining uyg‘unligi – asarni ko‘p qirrali o‘rganish imkonini berdi va Rumiylar g‘oyalarining bugungi kundagi ahamiyatini ilmiy asosda ko‘rsatib o‘tdi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Qodirov B. Komil inson tarbiyasining pedagogik asoslari. Toshkent, 2001.
2. “Jaloliddin Rumiylar tavalludining 800 yilligi” munosabati bilan metodik-bibliografik qo‘llanma. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. Toshkent. 2007. 65-bet.
3. Jaloliddin Rumiylar. “Masnaviyi-Ma‘naviy”. 1-kitob. “Hidoyat” jurnali tahririyati. Toshkent. 2005. 18-bet.
4. Mardonova M. Jaloliddin Rumiyning “Masnaviyi ma‘naviy” asarida irfon va falsafa uyg‘unligi. “XXI asr: fan va ta‘lim masalalari” ilmiy elektron jurnali. №1, 2024 yil.
5. Rumiylar, Jaloliddin. Ichindagi ichindadir. T., 2001.
6. Schimmel A. The Triumphal Sun: A Study of the Works of Jalaloddin Rumi. Albany: SUNY Press, 1978.
7. Chittick W.C. The Sufi Path of Love: The Spiritual Teachings of Rumi. Albany: State University of New York Press, 1983.
8. Aflaki S. Manaqqib ul-arifin. Toshkent: Fan, 2004.